

Kirsam maylimi?



14:40 / 01.04.2019 4746

Qadrli bolajonlar, bugun siz bilan birovning uyiga yoki xonasiga kirish uchun ruxsat so'rashni o'rganamiz. Siz kimningdir xonadoniga borganda kirish uchun, avvalo uy egasini chaqirish kerakligini bilasiz. Eshik ochiq bo'lsa ham, ichkaridan uy egasini chaqirmasdan kirib ketish mumkin emas. Buni bilasiz-a? Ha, yaxshi, barokalloh! Birovning uyiga chaqirmasdan kirish u yoqda tursin, hatto ko'z tashlash, «Ichkarida kim bor ekan?» deb qarab qo'yish ham mumkin emas. Shuning uchun eshikni taqillatish yoki «Ichkariga kirsam maylimi?» deya uy egasini chaqirish kerak bo'ladi.

Demak, eshik yopiq bo'lsa ham, ochiq bo'lsa ham, ichkariga qaramasdan eshikning ro'parasida emas, balki uning o'ng yoki chap tomonida turib, eshik qo'ng'irog'ini bosasiz yoki eshikni uy egalari eshitadigan darajada taqillatasiz. Juda qattiq taqillatib, ularni cho'chitib yubormaysiz. Lekin juda sekin

taqillatsangiz ham, ichkaridagilar eshitmasligi mumkin. Istasangiz, eshikni taqillatmay, balandroq ovozda kerakli kishini chaqirishingiz mumkin. Qo'ng'iroqni chalib, eshikni taqillatib yoki ovoz chiqarib chaqirish uch marta bo'ladi, undan ko'p chaqirish odobsizlik hisoblanadi. Har bir chaqirishning orasida biroz kutib turasiz. Ichkaridan birov «Kim?» deb so'rasa, ismingizni aytib, o'zingizni tanishtirasiz. Mabodo, kirishga ruxsat bo'lmasa, masalan, «Uyda hech kim yo'q edi» kabi gaplar aytilsa yoki uch marta chaqirganingizda ham javob bo'lmasa, indamay qaytib ketishingiz kerak, hatto eshik ochiq bo'lsa ham, kirib ko'rishingiz mumkin emas.

Xuddi shuningdek, o'z uyingizda ham ota-onangiz yoki opa-ukalaringiz o'tirgan yoki yotgan xonaga ruxsatsiz kirish kerak emas. Bunda ham, hozir aytilganidek, yo eshikni taqillatasiz, yo ovoz chiqarib chaqirasiz. Ruxsat berilsagina, kirasiz.

Bolajonlar, biror joyga kirish uchun ruxsat so'rash nega buncha muhim ekan, deb o'ylayapsizmi? Masalan, maktabda biror sinfxonaga ruxsat so'ramay kirsangiz, darsga xalaqit qilishingiz mumkin. Yoki birovning xonadoniga yo o'z uyingizda kimningdir xonasiga ruxsat so'ramay kirsangiz, u yerdagilar kiyim almashtirayotgan bo'lishi yoxud uxlash uchun yotgan bo'lishi, yo bo'lmasa, boshqa turli holatlarda turgan bo'lishi mumkin. Shunda noqulay vaziyat yuzaga keladi. Mana shunday noxush yoki xijolatli holatlarning oldini olish uchun ruxsat so'rab kirish kerak.

Yana bir gap – ruxsat so'rasangiz ham, birovning uyiga yoki xonasiga istagan vaqtingizda boravermang. Masalan, namoz vaqtida, ovqatlanish vaqtida yo kech bo'lib, uyquga yotish vaqti bo'lganda bormagan ma'qul.

G'iyosiddin Yusuf